

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (O'ZBEK
FILOLOGIYASI) FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

“HOZIRGI O'ZBEK TILI”

MA`RUZALAR MATNI

Tuzuvchi:

D.A.NURMONOVA

Andijon– 2017

1-mavzu: Sintaktik birliklar tarkibi. Gapning mazmuniy tuzilishi

R e j a:

1. Sintaksis haqida tushuncha
2. Asosiy sintaktik birliklar.
3. Gap.
4. Soʻz birikmasi.
5. Qoʻshma gap.

Sintaksis - sintaktik qurilmalar va ularni hosil qiluvchi sintaktik aloqalarni oʻrganuvchi boʻlimidir. Sintaktik qurilmalarning soʻz, soʻz birikmasi, gap va matn koʻrinishida namoyon boʻlishini oʻrganadi.

Sintaksis (grekcha *syntaxis* soʻzidan olingan boʻlib, yopishtirmoq, birlashtirmoq demakdir) til tizimining yuqori sathi boʻlgansintaktik sath hamda shu sath haqidagi taʼlimotdir.

Sintaksis, bir tomondan, soʻz shakllarining bogʻlanish qoidalarini, ikkinchi tomondan, tarkibida bu qoidalar roʻyobga chiqadigan bir butunlikni – gapni oʻrganadi.

Bogʻli nutqning axborot tashuvchi eng kichik birligi va shunday birliklarning umumlashgan namunasi gapdir. Demak, sintaktik sathning asosiy birligi va sintaksisning asosiy oʻrganish obʼekti gap hisoblanadi.

Gap bir butunlik sifatida gap boʻlaklaridan va soʻz birikmalaridan iborat. Demak, gapning ichki tuzilish birligi gap boʻlaklari va soʻz birikmalaridir.

Sintaksisning oʻrganish obʼekti uchta va shunga koʻra, sintaksis uch turga boʻlinadi:

- 1) soʻz birikmasi sintaksisi:
- 2) gap sintaksisi:
- 3) matn sintaksisi.

Sintaktik birliklar ham til birligi sifatida tizim tarkibida sintagmatik va paradigmatic munosabatlar boʻladi.

Maʼlum bir sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati sintagmatik munosabatni hosil qiladi.

Sintaktik birlik til tizmasi tarkibida yuqori sath birligi sifatida shakl va mazmun birligidan tashkil topgan bir butunlik ekan, sintaktik birliklar oʻrtasida sintagmatik munosabat ham ikki tomonlama xususiyatga ega boʻladi: a) shakliy sintagmatik munosabat, b) mazmuniy sintagmatik munosabat.

Maʼlum sintaktik shaklning (gap boʻlagi shaklining) boshqa sintaktik shakl bilan ketma-ket munosabati shakliy sintagmatik munosabat sanaladi.

Shakliy sintagmatik munosabat ikki xil boʻladi: a) teng munosabat (tenglanish): b) tobe munosabat (tobelanish).

Mazmuniy birliklarning ketma-ket munosabati mazmuniy sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintaktik birliklarning mazmuniy munosabati kishi ongida aks etgan moddiy dunyodagi elementlarning oʻzaro munosabatidir. Sintaktik birliklar oʻrtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatni ham quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) subʼekt va predikat munosabati yoki predikativ va subʼektili munosabat;
- 2) belgi va predmet oʻrtasidagi munosabat yoki atributiv munosabat;
- 3) belgi bilan harakat oʻrtasidagi munosabat yoki relyativ munosabat;
- 4) predmet (obʼekt) va harakat oʻrtasidagi munosabat yoki obʼektili munosabat.

Sintaktik aloqa yoʻnalishiga koʻra ikkiga boʻlinadi: a) ikki tomonlama aloqa (koordinatsiya), b) bir tomonlama aloqa (subordinatsiya).

Sintaktik birikmalarning maʼkon va zamonga bogʻliq boʻlmagan oʻzaro assotsiativ munosabati paradigmatic munosabat hisoblanadi. Maʼlum bir asosda oʻzaro assotsialashgan sintaktik birliklar paradigma aʼzolari sanaladi. Paradigma aʼzolarining umumlashmasi esa maʼlum umumlashmani, kategoriyan hosil qiladi.

Gapning semantik qurilishini semantik sintaksis o'rganadi. Traditsion sintaktik nazariyalarda, asosan, gapning formal qurilishi o'rganildi. Faqat ayrim o'rinlardagina) semantikasiga murojaat qilindi. Gapning ma'no xususiyati va tarkibi ham, gapning semantik turlari, gapning formal va semantik strukturalarining o'zaro munosabati ham yaqin yillargacha maxsus o'rganish ob'ekti bo'lmay keldi.

Hozirgi kunda sintaktik semantika deyarli hamma tilshunoslar tomonidan e'tirof etilsa ham, ammo sintaktik semantika maqomi masalasida tilshunosliklar o'rtasida bir xillik yo'q.

N.Yu.Shvedovanning fikricha, sintaktik semantikaning asosiy vazifasi formal-sintaktik modellarning xususiy ma'nolarini aniqlashdan iborat bo'lishi kerak. Bunga ko'ra gap struktur sxemasining umumlashtirilgan ma'nosi va ular o'rtasidagi munosabat gap sintaktik qurilishining asosi bo'lib xizmat qiladi. U gap mazmunini ekstralingvistik omillarsiz, sof til materiallariga tayangan holda o'rganishga harakat qiladi. Tilning har qanday sath birliklari, jumladan, gapning qurilish modellari ham undagi kategorial va konkret ma'nolar munosabatlaridan hosil bo'lgan semantik o'ziga xoslikka ega bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari, asosan, gapning kommunikativ minimumi komponentlarining leksik ma'nolariga asoslanadilar Bunga muvofiq gapning semantik tuzilishi struktur sxemalar chegarasida emas, balki undan tashqarida ajratiladi. Struktur sxema va semantik tuzilishlar bir-birini kesishmaydigan parallel qatorlarga teriladi. Bunday qarash O.I.Moskalskaya ishlarida namoyon bo'ldi.

Sintaktik semantika bo'yicha Ye.V.Paduchevanning ham izlanishlari o'ziga xosdir. Uning fikricha, gap ma'nosi leksema ma'nolaridan, so'z shakllarining grammatik ma'nolaridan va sintaktik qurilmalarning ma'nolaridan tashkil topadi. Shuning uchun ham sintaktik semantika tavsifi leksik va morfologik semantikani bir butun gap semantikasini tavsiflashga komponent bo'lishi kerak.¹

Gapning denotativ konsepsiyasi V.G.Gak asarlarida izchillik bilan rivojlantiriladi. U gapni to'liq til belgisi hisoblab, gap referenti situatsiyadir, ya'ni "gapirish" momentida ob'ektiv borliqdagi so'zlovchi ongida mavjud bo'lgan va gapning o'zini shakllantirish jarayonida til birliklarini tanlashga ma'lum darajada sharoit yaratuvchi elementlar yig'indisidir, deydi.

Simvolik mantiq klassik mantiqdan farqli ravishda, o'zining tushunchalarini inson ongida aks etishini chetlab o'tgan holda bevosita ob'ektiv reallik kategoriyalari bilan munosabatini belgilashga intiladi. Propozitsiya tushunchasining bu umumiy tendensiyasi natijasida keyinchalik u tafakkurdan ob'ektiv reallikka, sub'ektiv omildan ob'ektiv omilga «berildi».Natijada u tafakkur shakliga emas, balki uning mazmuniga, u orqali ifodalanadigan ob'ektiv reallikka nisbatan qo'llanila boshladi. Sub'ektiv modallik kategoriyasida ozod bo'lib, situatsiyani ifodalashga o'tdi. Propozitsiya xuddi shu ma'nosi bilan tilshunoslikka kirib keldi.

Propozitsiya tushunchasi B.Fassel asarlarida yanada konkretlashdi. Uning fikriga ko'ra, propozitsiya real borliq bilan struktur analogiyaga ega bo'lgan aktual faktdir. Propozitsiya haqida Ch.Fillmor shunday deydi: "Gapning asosiy tuzilishida"propozitsiya" deb nomlash mumkin bo'lgan strukturani, ya'ni gapning modal aspektidan ajralgan fe'l bilan ot o'rtasida zamondan tashqaridagi munosabatlar majmuasini kuzatamiz. Gapning modal aspekti uning butun xarakteristikasini belgilaydigan inkor, zamon, mayl va tus kabi xususiyatlarini o'z ichiga oladi.¹

Hozirgi kunda ko'pchilik tilshunoslar propozitsiya termini ostida gapning semantik yadrosi hisoblangan, ya'ni gapning semantikasida o'z ifodasini topgan ob'ektiv reallik, ob'ektiv mazmunni tushunadilar.

Propozitsiya faqat gaplar orqali ifodalanishi shart emas. U so'z birikmasi va so'zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Dars boshlandi / darsning boshlanishi. Demak, ma'lum bir sintaktik tuzilma gap bo'lishi uchun ma'lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari, yana boshqa belgilarga – kommunikativ avtonomlik va modallik belgilariga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun ham har qanday gap ot propozitsiyasida transpozitsiya qilinganda, uning kommunikativ

¹ .Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. Ko'rsatilgan kitob. 29-bet.

¹ Общее языкознание. Внутренняя структура языка. М.: Nauka, 1972. с.298.

bo‘linishi (tema-rematik bo‘linish) va modal xususiyati yo‘qoladi, ammo nominativ mazmuni eskicha saqlanib qoladi. Masalan:

O‘quvchilar darsga tayyorlanishdi – o‘quvchilarning darsga tayyorlanishi.

Ko‘p yurish foydali – ko‘p yurishning foydaliligi.

Har qanday gap semantikasida propozitiv mazmundan tashqari, so‘zlovchining kommunikativ niyati va mumkin bo‘lgan modallikdan biri ishtirok etishi kerak bo‘ladi. Boshqacha aytganda, propozitsiyadan real gap mazmuniga o‘tish uchun propozitiv ramkadan tashqari, yana ikki ramkani – modallik va kommunikativ ramkani qilish zarur bo‘ladi. Modallik va kommunikativlik har qanday gap semantik tuzilishning zaruriy komponenti hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar

Sintaksis, lingvistik sath, umumiylik, xususiylik, paradigmatika, sintagmatika, pog‘onaviy munosabat, integral ma‘no, differensial ma‘no, so‘z birikmasi, gap, qo‘shma gap, semantika.

Savol va topshiriqlar

1. “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi” boshqa qaysi fanlar bilan o‘zaro aloqador?
2. Mazkur fanning o‘rganish ob‘ekti nima?
3. “O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi” fanining asosiy vazifasi nimadan iborat?
4. Lingvistik sath deb nimaga aytiladi?
5. Sintaksisning til sathlari orasidagi o‘rni qanday?
6. Paradigmatik munosabat nimaga aytiladi?
7. Sintagmatik munosabat deb nimaga aytiladi?
8. Pog‘onaviy munosabat deb nimaga aytiladi?
9. So‘z birikmasi deb nimaga aytiladi?
10. Gapning muhim belgilarini ayting.

2-Mavzu: Sodda gapning predikat xarakteriga ko‘ra turlari

R e j a:

1. Sodda gaplarning predikat xarakteriga ko‘ra tiplari.
2. Fe‘l asosli gaplar.
3. Ot asosli gaplar.
4. Mavjudlik bildiruvchi gaplar.
5. Ko‘p predikatli qurilmalar.

Gap bilan fikr o‘zaro dialektik aloqadir. Gapda fikr ifodalanadi. Fikr doimo gap orqali shakllanadi. Demak, gapni o‘rganar ekanmiz, uni fikr bilan bog‘lab tekshirishimiz kerak.

Gap ma‘lum fikrni ifodalash bilan birga, har xil his-tuyg‘ularni ham ifodalaydi. Biroq bu emotsiyalar fikr bilan bog‘liq holda ro‘y beradi. Demak, gap intellektual (aqliy) holatni ham ko‘rsatadi.

Gapning xarakterli belgilari predikativlik va intonatsiya ekanligi bizga ma‘lum. Bu belgilar gap tushunchasining asosi, gapning shakllantirish vositasidir.

Har bir gapning reallik bilan bog‘liqligi haqida biror fikr, xabar bayon qilish gap mundarijasining voqelik bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Bu hodisa-gap mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikatsiya sanaladi.

Gapni predikatsiya shakllantiradi. Bu grammatik kategoriya-umuman gapga xos xususiyat. Predikativlikni kesim ko‘rsatadi. (Bordi. Student edim): kesim umumiy predikativlik ma‘nosini konkret modallik, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ifodalaydi. Predikativlikni shakllantirishda intonatsiyaning ham ishtiroki bor: intonatsiya gapga xos bo‘lgan universal vositadir. Anglashiladiki, predikativlikni ifodalash gapning paradigmasi-predikativlikni bildiruvchi butun formalari sistemasi bilan bog‘liq.

Gap fikrni ifodalaydi, ma'lum maqsadni bayon qiladi. Bu hodisa, birinchidan, shu gapdagi fikrning borliqqa munosbaati, ikkinchidan, so'zlovchining sub'ektiv munosabati – modallik (reallik, gumon, taxmin, istak kabilar) bilan, zamon va shaxs bilan bog'lanadi.

Gapni shakllantiruvchi, gapning asosi bo'lgan predikativlik hodisasi, odatda, so'zlarning predikativ qo'shilishi bilan ifodalanadi. (Ega va kesimning o'zaro munosabati: Bola yugurdi. Bola yosh kabi) Lekin predikativlik tabiiy, bir so'zdan iborat bo'lgan gaplarda ham mavjud. (Qor! Tun. kabi) Bir so'zdan iborat gaplardan konkret gap bo'lagini topib bo'lmaydi. Demak, predikativlik bunday gapga butunicha xos bo'ladi. Bularning hammasida, shubhasiz, intonatsion tugallik bor. Bundan gapda predikativlik bilan intonatsion tugallikning birgalikda harakat qilishi, bir-biriga moslashgan bo'lishi anglashilib turadi. Intonatsiya predikatsiyani ifodalash vositalaridan biridir, bu hol ham gapning eng asosiy belgisi predikativlik ekanligini ko'rsatadi.

So'zlarning predikativ qo'shilishi orqali gap hosil bo'lishi (Suv tiniq kabi) bu konstruksiya hamma vaqt tugal fikrni ifodalaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Ba'zan bunday tugallik uchun boshqa elementlar ham talab qilinadi, lekin shunda ham, baribir, gapning konstruktiv asosi predikativ qo'shilmadir. Bu qo'shilma gapda hech qanday elementga tobe bo'lmaydi, balki boshqa elementlarni o'ziga tobelaydi, demak, u absalyut xokimlikka egadir. Bu qo'shilma – predikat birlik-gapning hamma belgilarini: nutqning fikr anglatadigan, xabar bildiradigan eng kichik, yaxlit birligi ekanligini, boshqa predikativ birliklar, shuningdek, sodda gap va qo'shma gap sostavidagi sodda gapga o'xshash qismlar boshqacha xususiyatlarga ega bo'ladi. Misollarni chog'ishtiring: Sohibjon-mashhur paxtakorning o'g'li. Otasi pensiyaga chiqqan. – Otasi pensiyaga chiqqan Sohibjon sodiq farzand ekanligini ko'rsatish uchun ishga astoydil kirishdi. (Ikkinchi misoldagi otasi pensiyaga chiqqan qo'shilmasi Sohibjon bo'lagiga tobe-uning aniqlovchisidir)

Predikativlik hodisasi orqali gap so'z birikmasidan, predikativ qo'shilma predikativ bo'lmagan qo'shilmadan aniq farqlanib turadi: yosh bola (voqelikka munosabat: reallik, real emaslik, istak kabi ma'nolar, ma'lum maqsad, zamon munosabati ko'rsatilmagan; intonatsion tugallik yo'q-bunda fikr ifodalanmaydi) – Bola yosh (predikatsiya ifodalangan: voqelikka munosabat ko'rsatilgan – tugallik, zamon munosbaati, gapga xos intonatsiya). Yosh bola va bola yosh qo'shilmalarining analizi shuni ko'rsatadiki, bularning har ikkalasida ham predmet va belgi tasavvurlarining munosabati ifodalangan, lekin ikkinchisida predmetning belgisi predikativlik yo'li bilan ko'rsatilgan, paytga munosabat ifodalangan.

Predikatsiyaning asosiy belgilaridan biri tasdiq – inkordir. Bu tasdiq – inkor tilda turlicha ifodalanadi. Umuman, predikatsiya turli vositalar bilan: predikativ formadagi fe'llar, kesimlilik affikslari orqali (Bording. Studentsan. To'g'ri, student edi kabi), so'zlar tartibi, intonatsiya, gapning har xil strukturasi bilan ifodalanadi (Bahor! Bu – uchuvchi. Paxta oppoq kabi).

Gap predikativlik shakliga ega bo'lgan eng kichik birlikdir. Predikat gapning tuzilish va mazmuniy markazi sanaladi.

Tilshunoslar predikat tushunchasi haqida munozarali fikrlarning ilgari surmoqdalar. Shuningdek, uning gap mazmuniy tuzilishi va markazidagi tutgan o'rni haqidagi mulohazalar ham turli xil. Ayrim tilshunoslar predikatga mantiqiy tushuncha sifatida qarasalar, ba'zilar grammatik tushuncha sifatida qaraydilar. Keyingi yillarda tilshunoslikda semantikaning yuqori pog'onaga ko'tarilishi natijasida tilshunoslar predikatga mazmun nuqtai nazaridan qaray boshladilar.

Predikat ham semantik, ham mantiqiy, ham grammatik tushunchadir. Semantik tushuncha sifatida predikat har qanday sintaktik qurilmaning nominativ asosi, uning yadrosi. Grammatik tushuncha sifatida predikat o'zi boshqarib kelayotgan sintaktik elementlarning markazi. Logik tushuncha sifatida fikrning sub'ekt belgisini bildiruvchi qism.¹

Mantiq shunoslikda sub'ekt va predikat tushunchasi keng qo'llaniladi. Mantiqshunoslikda mantiqiy ega sub'ekt, mantiqiy kesim – predikat deb yuritiladi. Sub'ekt va predikat tushunchasi mantiqshunoslikda hukm bilan chambarchas bog'liq. Sub'ekt oldingi hukmlardan aniq bo'lgan

¹ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. Т.: Fan, 1984. 64-б.

belgilarni, predikat esa yangi belgilarni ifodalaydi. Har bir hukm uchun ega va kesimning zarur bo'lishi uarning alohida-alohida bo'lgan ahamiyatini inkor etmaydi.²

Demak, mantiqiy sub'ekt tushunchasi hukmning boshlang'ich nuqtasi bo'lsa, predikat tushunchasi yangi ma'lumot beruvchi markazdir.

Mantiqshunoslikdan farqli ravishda tilshunoslikda predikat grammatik va semantik tushunchadir. Sub'ekt predikat munosabatida predikat yetakchi o'rinni egallaydi. Predikat predikativlik shaklini olib, gapni grammatik jihatdan shakllantiradi. Predikat gapda predmetning belgisini bildiruvchisi, muayyan vaziyat haqidagi belgisini bildiruvchisi, muayyan vaziyat haqidagi tasdiq yoki inkor kommunikatsiyasini beruvchi markaz vazifasini bajaradi.

Bu fikrdan shu narsa oydinlashadiki, predikativlik shaklini olgan predikat sintaktik sathda kesim vazifasini bajaradi. Predikat vazifasida fe'l hamda ot (keng ma'noda) kelishi mumkin.

Fe'l o'zining leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra kesim vazifasida qo'llanishga juda mos so'z turkumidir.³ Chunki fe'l o'zida zamon, modallik, shaxs va kommunikativlik kategoriyalarini birlashtira oladi. Shuning uchun ham tilshunolar fe'lga predikat nuqtai nazaridan qaraydilar. Masalan, Salima maktabga bordi gapida fe'l predikat kesim vazifasida qo'llanib, sub'ektning harakat belgisini ifodalamoqda. Bundan tashqari, kesim o'tgan zamonni. 3 shaxsni, tasdiq va xabarni ham anglatmoqda.

Fe'l predikat va ot predikatning o'zaklari boshqa boshqa bo'lsa ham, umumiy holatda bir maqsadga xizmat qiladi. Ularning orasidagi farq unchalik katta bo'lmaydi. Ot predikat jarayonni yoki aniq vaziyatni ifodalasa, fe'l predikat aniq harakatni ifodalaydi.

Demak, ot predikat ham fe'l predikat singari bo'sh o'rinlarini to'ldirib yoyiq gap hosil qila oladi. Ot predikatlar xuddi fe'l predikat kabi gapning mazmuniy hamda grammatik markazini tashkil qila oladi.

Tayanch tushunchalar

So'z birikmasi, gap, predikat, ot asosli gaplar, fe'l asosli gaplar, semantika, mavjudlik bildiruvchi gaplar, ko'p predikatli qurilmalar, qo'shilma predikatlar.

Savol va topshiriqlar

1. Predikat tushunchasi bilan bog'liq tilshunoslikda qanday fikrlar mavjud?
2. Sodda gaplar predikat xarakteriga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Ot asosli gaplar deb nimaga aytiladi?
4. Predikat tiplari haqida ma'lumot bering.
5. Fe'l asosli gaplar deb nimaga aytiladi?
6. Ko'p predikatli qurilmalarni tushuntiring.
7. Qo'shilma predikatlar haqida ma'lumot bering.

3-Mavzu: Gapning modal aspekti

R e j a:

1. Predikativlikning asosiy belgilari.
2. Predikativlik va modallik.
3. Mantiqiy va grammatik modallik.
4. To'ldiruvchili yoyiq gaplar semantikasi.
5. Holli yoyiq gaplar semantikasi.
6. Predmetning murakkab nomlari

² Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. Т.: Fan, 1984. 132-бет.

³ Ўзбек тили грамматикаси. Т. 1976, 2 том. 129-бет.

Gapning denotativ (nominativ) aspektini ifodalash uchun ko‘p hollarda “propozitsiya” terminidan foydalaniladi. Bu termin tilshunoslikka mantiqdan – falsafiy tadqiqotlar ta’sirida kirib keldi. Propozitsiyaga qiziqishning o‘lishi bilan uning talqinida ham xilma-xillik orta bordi.

Simvolik mantiq klassik mantiqdan farqli ravishda, o‘zining tushunchalarini inson ongida aks etishini chetlab o‘tgan holda bevosita ob’ektiv reallik kategoriyalari bilan munosabatini belgilashga intiladi. Propozitsiya tushunchasining bu umumiy tendensiyasi natijasida keyinchalik u tafakkurdan ob’ektiv reallikka, sub’ektiv omildan ob’ektiv omilga «berildi». Natijada u tafakkur shakliga emas, balki uning mazmuniga, u orqali ifodalanadigan ob’ektiv reallikka nisbatan qo‘llanila boshladi. Sub’ektiv modallik kategoriyasida ozod bo‘lib, situatsiyani ifodalashga o‘tdi. Propozitsiya xuddi shu ma’nosi bilan tilshunoslikka kirib keldi.

Hozirgi kunda ko‘pchilik tilshunoslar propozitsiya termini ostida gapning semantik yadrosi hisoblangan, ya’ni gapning semantikasida o‘z ifodasini topgan ob’ektiv reallik, ob’ektiv mazmunni tushunadilar.

Propozitsiya faqat gaplar orqali ifodalanishi shart emas. U so‘z birikmasi va so‘zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Dars boshlandi / darsning boshlanishi. Demak, ma’lum bir sintaktik tuzilma gap bo‘lishi uchun ma’lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari, yana boshqa belgilarga – kommunikativ avtonomlik va modallik belgilariga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham har qanday gap ot propozitsiyasida transpozitsiya qilinganda, uning kommunikativ bo‘linishi (tema-rematik bo‘linish) va modal xususiyati yo‘qoladi, ammo nominativ mazmuni eskicha saqlanib qoladi. Masalan:

O‘quvchilar darsga tayyorlanishdi – o‘quvchilarning darsga tayyorlanishi.

Ko‘p yurish foydali – ko‘p yurishning foydaliligi.

Har qanday gap semantikasida propozitiv mazmundan tashqari, so‘zlovchining kommunikativ niyati va mumkin bo‘lgan modallikdan biri ishtirok etishi kerak bo‘ladi. Boshqacha aytganda, propozitsiyadan real gap mazmuniga o‘tish uchun propozitiv ramkadan tashqari, yana ikki ramkani – modallik va kommunikativ ramkani qilish zarur bo‘ladi. Modallik va kommunikativlik har qanday gap semantik tuzilishning zaruriy komponenti hisoblanadi.¹

Shunday qilib, har qanday semantik qurilishi murakkab, ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, unda eng kamida uch komponent: propozitiv, modal, kommunikativ komponentlar ishtirok etadi. Gapning semantik qurilishini tashkil etgan yuqoridagi komponentlardan eng asosiysi ob’ektiv borliqdagi ayrim situatsiya yoki voqealarni aks ettiruvchi propozitiv strukturadir.

Demak, har qanday gap mazmunida uch aspekt ishtirok etadi: propozitiv, modal, kommunikativ (tema-rematik) aspektlar. Bulardan til birligi sifatidagi gap semantikasida faqat propozitsiya va ob’ektiv modallik mavjud bo‘lsa, nutq birligi sifatida gap semantikasida ulardan tashqari, albatta, kommunikativ aspekt va ba’zan sub’ektiv modallik ham ishtirok etadi.

Ayrim tilshunoslar esa gap mazmunida ekstralingvistik faktorlarni rad etmagan holda, til ifodasining ob’ektiv borliq, situatsiya bilan bevosita emas, balki inson ongida mavjud bo‘lgan “ob’ektiv borliq obrazlari” orqali bog‘lanishiga asoslanib, “situatsiya” termini psixik makon va psixik zamonda joylashgan psixik situatsiyaga nisbatan qo‘llaydilar. Hozirgi sintaktik semantikasida denotativ aspekt ko‘proq o‘rin olmoqda. Bunga ko‘ra situatsiya elementlari hisobga olinadi. Ammo tilshunoslar ham shu situatsiya elementlari masalasi ham bir xil emas.

Semantik strukturaning original konsepsiyasi I.P.Susov tomonidan ilgari surildi. Uning qarashicha, real haqidagi bir necha situatsiyalardan tashkil topadi. Inson ongi konkret situatsiyalarni aks ettiradi, umumlashtiradi. Inson ongida abstrakt situatsiyaga ichki til shakllari mos qo‘yiladi. Uni hosil qilish uchun bosqichda bo‘ladi: abstrakt situatsiyaga izomorf bo‘lgan strukturani hosil qiluvchi relyatsion bosqich; relyatsion strukturaga sub’ekt – predikat munosabatni qo‘shadigan predikatsion bosqich; predikatsion strukturaga temporollik, modallik va boshqalarni yuklaydigan modifikatsion bosqich.

Ko‘rinib turibdiki, semantik tuzilish haqida hozirgi kunda tilshunoslar o‘rtasida bir xillik yo‘q. Bu esa gapning semantik qurilishining nihoyatda murakkabligi natijasidir.

¹ Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик- синтактик асимметрия. Т.: Fan, 1984. 10-бет

Har bir gap anglatadigan fikrni, shu gapdan kuzatilgan maqsadni soʻzlovchi va tinglovchi bir xil tushunadi. Soʻzlovchining soʻzda tutgan maqsadiga, emotsionalikka qarab. Gapning tuzilishi ham shunga mos shaklda boʻladi. Masalan, soʻrashni bildiradigan gaplarning tarkibida kim, qaysi kabi olmoshlar ishtirok etadi: Kim keldi? Bu – soʻroq gapning shunga moslangan tipik shakllaridan biri. Demak, gap qurilishining soʻzlovchi tomonidan koʻzda tutilgan maqsadga (darak, soʻroq, buyruq mazmunlariga), emotsionallikka mos keladigan tipik shakllari bor. Lekin, birinchidan, bir turning tipik shakli nutqda boshqa tur uchun qoʻllanishi ham mumkin (masalan, soʻroq gapning muayyan oʻrinlarda darak yoki buyruq mazmunini berish uchun qoʻllanishi), ikkinchidan, gap nutq ichida, situatsiyaga qarab turlicha tushunilishi mumkin. Masalan, Kim gapirdi? gapi ishlatilish oʻrniga, intonatsiyaga qarab, “Gapirgan odam kim?” mazmuniga ham, “Hech kim gapirgani yoʻq-ku” mazmunida ham qoʻllana oladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqadi: gap shakli - grammatika intonatsion jihatlaridan ham, mundarija jihatidan ham tugallikka ega. Ammo uning fikriy tugalligi nisbiydir. Gap nutq ichida yashaydi. Nutqda uning mazmuni boshqa gaplar bilan munosabatda boʻlish orqali yana ham oydinlashadi.

Predikativlik gapning grammatik maʼnosi. U gapning shakllar tizimidagi qismlarga ajralmaydigan grammatik maʼnodir.

Predikativlik shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor maʼnolari va bu maʼnolarni ifodalovchi shakllar yigʻindisidan iborat. Grammatik maʼnoga va uni ifodalovchi shakllar tizimiga ega boʻlgan har qanday eng kichik sintaktik birlik gap hisoblanadi.

Sintaktik qurilmaning oʻzgaruvchan unsurlari orqali ifodalanadigan, modusga kiruvchi maʼno sintaktik qurilmaning grammatik maʼnosi, ana shu maʼnolar va uni ifodalovchi shakllar tizimi gapning grammatik kategoriyalari sanaladi. Gapning grammatik kategoriyalari ham grammatik maʼno (soʻroq, buyruq, darak, inkor va boshqa) va grammatik shakl birligidan iborat.

Predikativlik bir butunlik sifatida bir necha uzvlardan tashkil topadi va bu uzvlarning har qaysisi, oʻz navbatida, kichik kategoriyalarni hosil qiladi.

1. Gapning grammatik shaxs kategoriyasi.
2. Gapning grammatik zamon kategoriyasi.
3. Gapning grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi.
4. Gapning modal kategoriyasi.

Modallik gapning asosiy belgisi, gap mazmunining eng muhim qismidir.

Modallik ostida gapning subʼekt bilan bogʻlik boʻlgan turli maʼnolari tushuniladi. Shunga koʻra, bu maʼnolarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) obʼektiv va 2) subʼektiv modallik.

Obʼektiv modallik bilish akti yoʻnaltirilgan maʼlum bir vaziyatdagi mavjud obʼektiv aloqalar xarakterini aks ettiradi (mumkinlik, haqiqiylik, zaruriylik). Subʼektiv modallik gapda ifodalangan obʼektiv mazmunga soʻzlovchining munosabaptini ifodalaydi va modusga kiradi. Subʼektiv modallik kirish soʻz vazifasida kelgan maxsus modal soʻz yoki modal vazifasidagi boshqa soʻzlar yordamida ifodalanadi. Subʼektiv modallik orqali, oʻz navbatida, soʻzlovchining oʻz fikriga turli munosabatlari namoyon boʻladi: ishonch, tasdiq, gumon, achinish va boshqalar. Obeʼktiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri hisoblansa, subʼektiv modallik obʼektiv modallik ustiga qoʻyiluvchi qoʻshimcha modallikdir.

Tayanch tushunchalar

Predikat, predikativlik, gapning modal aspekti, modallik, mantiqiy modallik, grammatik modallik, toʻldiruvchi, yoyiq gap, hol, murakkab nom, deskripsiya.

Savol va topshiriqlar

1. Predikativlik deb numaga aytiladi?
2. Mantiqiy modallik deb nimaga aytiladi?

3. Predikativlikning asosiy belgilari qaysilar?
4. Grammatik modallik tushunchasini izohlang.
5. Holli yoyiq gaplarni tushuntiring.
6. To'ldiruvchili yoyiq gaplarni tushuntiring.
7. Deskripsiyani tushuntiring.

4-Mavzu: Gapning kommunikativ aspekti

R e j a:

1. Gapning kommunikativ aspekti.
2. Aktual bo'linishning gap semantikasidagi o'rni.
3. Aktuallashtirish.
4. Aktuallashtiruvchi vositalar .
5. Jumla paradigmikasi va sintagmatikasining aktual bo'linish bilan munosabati.

Gapning kommunikativ kategoriyasi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ham o'z ichiga oladi. Gapning kommunikativ maqsadiga qo'ra nutqiy aloqa turiga asoslanadi. So'zlovchi o'zining maqsadiga muvofiq keladigan gap shakllarini tanlaydi. Shunga ko'ra, gaplar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) darak gaplar, 2) so'roq gaplar, 3) buyruq gaplar, 4) istak gaplar. Har qanday gapning uyushtiruvchi markazi kesim bo'lganligidan gapning ifoda maqsadiga ko'ra modellar ham kesim asosida ajratiladi.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra modellar tizimi kategoriyani hosil qiladi.

Invariant ma'no va invariant shakl asosidagi bu to'rt xil gap uch belgi asosida bir-biridan farq qiladi: a) I shaxs axboroti, II shaxsni harakatga qo'zg'ash, III modallik.

So'roq gap axborot bildirmaydi, lekin axborot ifodalash bilan aloqadorlik so'roq gapni darak va istak gaplar bilan yaqinlashtiradi.

Darak va so'roq gaplar modeli modallik ifodalashga befarq bo'lsa, buyruq va istak gaplar modallik bilan bog'langan. Buyruq gapning kesimi buyruq maylidagi fe'llardan, istak gapning kesimi esa istak maylidagi fe'llardan ifodalanadi.

Har bir gap anglatadigan fikrni, shu gapdan kuzatilgan maqsadni so'zlovchi va tinglovchi bir xil tushunadi. So'zlovchining so'zda tutgan maqsadiga, emotsionalikka qarab. Gapning tuzilishi ham shunga mos shaklda bo'ladi. Masalan, so'rashni bildiradigan gaplarning tarkibida kim, qaysi kabi olmoshlar ishtirok etadi: Kim keldi? Bu – so'roq gapning shunga moslangan tipik shakllaridan biri. Demak, gap qurilishining so'zlovchi tomonidan ko'zda tutilgan maqsadga (darak, so'roq, buyruq mazmunlariga), emotsionallikka mos keladigan tipik shakllari bor. Lekin, birinchidan, bir turning tipik shakli nutqda boshqa tur uchun qo'llanishi ham mumkin (masalan, so'roq gapning muayyan o'rinlarda darak yoki buyruq mazmunini berish uchun qo'llanishi), ikkinchidan, gap nutq ichida, situatsiyaga qarab turlicha tushunilishi mumkin. Masalan, Kim gapirdi? gapi ishlatilish o'rniga, intonatsiyaga qarab, "Gapirgan odam kim?" mazmuniga ham, "Hech kim gapirgani yo'q-ku" mazmunida ham qo'llana oladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqadi: gap shakli - grammatika intonatsion jihatlaridan ham, mundarija jihatidan ham tugallikka ega. Ammo uning fikriy tugalligi nisbiydir. Gap nutq ichida yashaydi. Nutqda uning mazmuni boshqa gaplar bilan munosabatda bo'lish orqali yana ham oydinlashadi.

Har bir gapda ma'lum ob'ektiv mazmun ma'lum moddiy vositalar – sintaktik shakllar vositasida ifodalanadi. Gapning ana shu moddiy ifodalanish tomoni uning sintaktik tuzilishi hisoblanadi.

Sintaktik birlik hisoblangan gapning shakliy tuzilishi jihatidan quyidagicha bo'linishi mumkin: 1) sintaktik aloqaga kirishadigan sintaktik shakllar; 2) sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar.

Bularning birinchi guruhi an'anaviy gap bo'laklari hisoblanadi. Gap bo'laklari o'z shakli, mazmuniy tuzilishiga ega bo'lib, ular o'rtasida doimiy munosabat mavjud. Ana shu munosabat negizida gap bo'laklarining darajalanishi namoyon bo'ladi.

Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi. Gap bo'lagi gapning boshqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismdir. Gap bo'lagi bilan gap orasidagi munosabat qism bilan butun orasidagi munosabatdek bo'lib, dialektik xarakterga ega.

Har qanday gap bo'lagi shakliy jihatdan moddiy asos (morfologik shakl) va sintaktik vaziyat (sintaktik shakl) qarama-qarshiligi va birligidan iborat. Morfologik shakl sintaktik shaklning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi. Morfologik shakl moddiy asos bo'lsa, sintaksis shakl uning vazifasidir. Morfologik shakl ma'lum bir sintaktik shaklning ichki tomonini ko'rsatadi. Sintaktik shakl birlashtiruvchilik, morfologik shakl esa farqlovchilik xususiyatga ega. Ya'ni ma'lum sintaktik shakl bir necha morfologik shakllarni birlashtirish asosida maydonga keladi.

Gap bo'lagi mazmuniy jihatdan ham bir necha unsurlardan tashkil topgan butunlikdir: u, bir tomondan, borliqdagi narsa va hodisalar, harakat-holatlar va ular o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, ikkinchi tomondan, gap tarkibida ishtirok etib, boshqa ma'noga munosabatda bo'ladi.

Tayanch tushunchalar

Gap bo'laklari, gapning shakliy tuzilishi, gapning mazmuniy tuzilishi, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, gapning kommunikativ aspekti, aktual tuzilish, paradigmatica, sintagmatika, aktuallashtiruvchi vositalar.

Savol va topshiriqlar

1. Aktuallashtirish deb nimaga aytiladi?
2. Gapning kommunikativ aspekti qanday xususiyatlarga ega?
3. Jumla paradigmatica haqida gapiring.
4. Jumla sintagmatikasi haqida gapiring.
5. Aktuallashtiruvchi vositalar qaysilar?

5-Mavzu: Gapning presuppozitiv aspekti

R e j a:

1. Gapning presuppozitiv aspekti.
2. Presuppozitsiya.
3. Presuppozitsiyaning yuzaga chiqish usullari.
4. Pragmatika.

Bugungi kunda gap mazmunini o'rganuvchi mazmuniy sintaksis deyarli hamma tilshunolar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, ammo mazmuniy sintaksis maqomi masalasida bir xillik yo'q. Ular orasida ikki qarama-qarshi yo'nalish ajralib turadi.

Bu yo'nalish tarafdorlari gapning zaruriy unsurlarining grammatik ma'nosiga asoslanadilar.

Bu yo'nalishda gapning har bir tuzilish tarxining umumiy grammatik ma'nosini topishga harakat qilinadi va tuzilish tarxining umumiy grammatik ma'nosi doirasida mazmuniy tuzilish aniqlanadi. Ularning fikriga ko'ra, mazmun grammatik shakllanmay, o'z holicha mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun gapning burcha sintaktik xususiyati gap mazmunining ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

Gap mazmunini tuzilish tarxlari asosida tahlil qilish N.Yu.Shvedova asarlarida o'z ifodasini topdi.

Ikkinchi yoʻnalish tarafdorlari gapning nominativ minimumi uzvlarining leksik maʼnolariga asoslanadi. Bunga muvofiq, gapning mazmuniy tuzilishi tuzilish tarxlari doirasida emas, balki undan tashqarida ajratiladi. Tuzilish tarxlari va mazmuniy tuzilishi bir-biri bilan kesishmaydigan yonma-yon qatorlarga teriladi. Bundan qarash O.I.Moskalskaya ishlarida namoyon boʻladi.

Mazmuniy sintaksisning keyingi yutuqlari gapga nominativ vazifa bajaruvchi birlik deb qarashga olib keldi. N.D.Arutyunova gapga obʼektiv borliqdagi voqeaning nomini ifodalovchi birlik sifatida yondashadi. Voqea propozitsiya atamasi bilan nomlanadi. Demak, gap propozitsiya nomi hisoblanadi va u predmet nomi boʻlgan soʻzga qarama-qarshi qoʻyiladi.

Predikat va voqea ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabat gapning mazmunini tashkil etadi.

Tayanch tushunchalar

gap, subyekt, kommunikatsiya, gapning presuppozitiv aspekti, presuppozitsiya, tag maʼno, pragmatika, propozitsiya, nutq vaziyati, kontekst.

Savol va topshiriqlar

1. Pragmatika nimani oʻrganadi?
2. Presuppozitsiyani tushuntiring.
3. Gapning presuppozitiv aspektini izohlang.
4. Propozitsiya deb nimaga aytiladi?
5. Nutqiy vaziyat haqida maʼlumot bering.

6-Mavzu: Sodda gaplarning murakkablashuvi

R e j a:

1. Murakkablashgan sodda gaplar atamasi va tushunchasi.
2. Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi birliklar.
3. Uyushiq boʻlaklar, ularning qoʻllanish usullari va koʻrinishlari.
4. Ajratilgan boʻlaklar.
5. Kirish va kiritma qurilmalar.
6. Undalmalar.
7. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomli oʻramlar bilan murakkablashgan sodda gaplar.

Sodda gapning tarkibida uyushiq boʻlaklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan boʻlaklar: sifatdosh, ravishdosh oʻramlar, harakat nomli tizimlar qatnashib, sodda gapni ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi. Bunday gaplar murakkablashgan sodda gaplar deyiladi.

Prof. Gʻ.Abdurahmonov tomonidan ilmiy adabiyotlarga olib kirilgan murakkablashgan sodda gaplar atamasi ostida sodda gaplar bilan qoʻshma gaplar oraligʻidagi gaplar ekanligi taʼkidlanadi¹.

Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat boʻlganligi sababli murakkablashishda ham bu ikki tomonni hisobga olish lozim. Shunga koʻra, murakkablashuvni ikki guruhga boʻlish mumkin:

- 1) ham shakliy, ham mazmuniy murakkablashuv;
- 2) mazmuniy murakkablashuv.

Murakkablashgan gaplarning sodda va qoʻshma gaplardan farqli oʻziga xos xususiyatlari bor. Ular quyidagilardan iborat:

¹ Махмудова Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент, Ўқитувчи, 1995, 97-бет.

1. Murakkablashgan gaplar orqali birgina maqsad ifodalanmay, murakkab fikr o'z ifodasini topadi.

2. Murakkablashgan gapni tashkil etgan bo'laklar gapning umumiy mazmuni bilan izohlash munosabatida bo'ladi.

3. Murakkablashgan gapda ikki xil predikativ birlik, hukm bo'ladi. Bu predikativ birlikning biri asosiy bo'lib, ikkinchisi to'liq bo'lmagan hukmdir. Asosiy hukm gapning umumiy mazmunidan anglashilsa, to'liq bo'lmagan hukm gapning uyushiq, ajratilgan bo'laklari, undalma va kirish bo'laklar orqali ifodalanadi.

4. Murakkablashgan gapni tashkil etgan bo'laklar asosiy gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishadi.

5. Murakkablashgan gapni tashkil qiluvchi bo'laklar o'ziga xos intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Bu intonatsiya boshqa gap bo'laklari intonatsiyasiga o'xshamaydi, ular gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi.

6. Murakkablashgan gaplarda shakliy va mazmuniy murakkablashuv va munosabat mavjud. Mazmuniy munosabatda ob'ektiv, sub'ektiv, vokativ va modal munosabat o'z ifodasini topadi.

7. Murakkablashgan gap o'ziga xos sintaktik qurilmalar bo'lib, shuning uchun ular sodda va qo'shma gaplardan farqlanadi.

Uyushiq bo'lakli gap. Gap tarkibida bir turdagi bo'laklar birdan ortiq holda qator keladi. Bir turagi bo'laklar gapning uyushiq bo'laklarini tashkil qiladi. Bunday bo'laklar ishtirok etgan gap uyushiq bo'lakli gap sanaladi: G'ijjak, tanbur, chang, ud, nay, daf va hokazo yangradi. (O.)

Uyushgan bo'laklar bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida birikadilar.

Uyushgan bo'laklar o'zaro tenglashish, boshqa gap bo'laklari bilan tobelanish asosida sintaktik aloqa kirishadilar.

Bir xil sintaktik qiymatga ega bo'lgan va ular gapning boshqa bo'lagiga tegishli bo'lib, shu bo'lakka nisbatan birday sintaktik munosabatda bo'lgan birdan ortiq gap bo'laklari uyushiq bo'laklar sanaladi.

Hozirgi o'zbek tilida gap uyushiq bo'laklarining qo'llanilishi tasodifiy bo'lmay, balki tarixan shakllangan sintaktik hodisalardir. U o'zining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. Uyushgan bo'lak gapda bir xil sintaktik vazifani bajaradi.

2. Uyushgan bo'lak komponentlari o'zaro teng aloqada bo'ladi va teng bog'lovchilar yordamida bog'lanadi.

3. Uyushiq bo'lak o'zi uchun umumiy hisoblangan bo'lak bilan bir xil munosabatda bo'ladi.

4. Uyushiq bo'laklar sanash intonatsiyasi orqali talaffuz qilinadi.

5. Uyushiq bo'laklar, odatda, bir xil so'z turkumlaridan ifodalanadi.

Uyushiq bo'laklar gapda o'zaro teng bog'lovchilar bilan, pauza va sanash intonatsiyasi bilan aloqaga kirishadi.

Gapning uyushiq bo'laklari sanash intonatsiyasi va teng bog'lovchilar(biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor) vositasida bog'lanadi.

Ajratilgan bo'laklar. Intonatsion hamda fikran ajratilib, gapda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar sanaladi.

Ajratilgan bo'laklar nutqda biror bo'lakni ajratib, bo'rttirib ko'rsatish uchun xizmat qilib, tinglovchi diqqatini shu bo'lakka jalb qiladi. Bunday bo'laklar og'zaki nutqda alohida intonatsiya bilan aytilib, muhim stilistik vosita hisoblanadi.

Ajratilgan bo'laklar, qaysi gap bo'lagiga tegishliligiga qarab, bir necha xil bo'ladilar. Ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan aniqlovchi, ajratilgan izohlovchi, ajratilgan hol.

Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi izohlash, inversiya, gap bo'laklarining kengayib kelishi bilan bog'liq.

Kirish va kiritma qurilmalar gapning biror bo'lagi bilan sintaktik munosabatga kirishmaydi. Ular gapning ayrim bo'lagi yoki butun ifodaga so'zlovchining sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'usini ifodalaydi.

So'z turkumidan ajralib chiqib, faqat modal ma'no ifodalovchi so'zlar (masalan, shekilli, demak, modomiki), ma'lum so'z turkumidan ajralib chiqmagan kirish va gap bo'lagi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar (qisqasi, rost, aftidan, oxiri) kirish bo'lak vazifasida keladi.

Kirish so'zlar bir so'zdan iborat bo'lib, ma'lum so'z turkumlari bilan bog'lanadilar.

Kiritma qurilmalar. Kiritma qurilmalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beradi. Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan mantiqiy-semantik jihatdan munosabatga kirishadilar.

Kiritma qurilmalar intonatsion jihatdan mustaqillika ega bo'ladilar. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydilar, semantik vazifa bajarmaydilar, gap bo'lagi yoki qo'shma gaplarning komponenti bo'lib hisoblanmaydilar.

Kiritma qurilmalarning gap tarkibida qo'llanish shakllari uch tipga bo'linadi: kiritma so'z, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

Kiritma so'z ayrim so'z shaklida bo'ladi: Ustozi (Vohidov) o'z shogirdlarining qobiliyatli yigit ekanligini maqtar edi. (Jurn.)

Kiritma birikmalar so'z birikmasi shaklida bo'ladi: U (safardan qaytgan kishi)... juda mayda odatiy voqealarni ham qoldirmay so'zlar edi. (G'.G'.)

Kiritma gaplar gap shaklida bo'ladi: Shu payt dumi kalta chavkar ot mingan qora soqolli keksa bir bek (yuzi ayollarniki singari tuksiz bo'lganidan, jangchilar o'zaro uni ko'sa dnb atashardi) Husaynning yoniga yugurib keldi. (Jurn.)

Kirish qurilmalar gap boshida kelsa, undan keyin, gap oxirida kelsa, undan oldin, gap ichida kelsa, har ikki tomonidan vergul qo'yiladi.

Kiritma qurilmalar, odatda, qavsga olinadi va tire bilan ajratiladi.

Undalmalar. So'zlovchining nutq qaratilgan shaxs yoki predmetni ifoda qiluvchi mustaqil so'z yoki so'z birikmasi undalma deyiladi. Undalma gapning umumiy mazmuni bilan bog'liq bo'lib, gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

Undalma bosh kelishik shaklida keladi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi. Lekin undalma undosh intonatsiyasi, pauza bilan ajratilishiga ko'ra hamda kesim bilan bog'lanmasligi jihatidan egadan farq qiladi. Undalma ko'proq so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni ifoda qiladi. Kechir meni, Onaxon, ishga ko'milib ketdim. (Yashin.)

Undalmalarda intonatsiya, gap xarakteriga ko'ra, turlicha bo'ladi: darak gaplarda past ohang bilan aytiladi, so'roq gaplarda alohida urg'u olgan undalmalardan keyin cho'ziq pauza bo'ladi: buyruq gaplarda gap mazmuniga qarab, past hamda kuchliroq ohang bilan aytiladi; undov gaplarda kuchli ohang bilan aytiladi.

Undalma intonatsiyasi uning gapda kelgan o'rniga ham bog'liq bo'ladi. Undalma gap boshida kelganda, undash, chaqirish intonatsiyasiga ega bo'lib, pauza bilan ajratiladi; gap o'rtasida kelganda undalmadan oldingi pauza keyingisidan qisqaroq bo'ladi; undalma gap oxirida kelganda ham undalmadan oldingi pauza uncha cho'ziq bo'lmaydi.

Sodda gap tarkibiga turli sifat-dosh, ravish-dosh, harakat nomi, shart maylidagi fe'lli o'ram (oborot)larni kiritish natijasida bu gap qurilishi murakkablashishi (ham shakl, ham mazmun jihatidan) va bunday o'ram (oborot)lardagi ikkinchi darajali predikatsiyaga ko'ra gapda predikativ jamlanish yuzaga kelishi mumkin.

Ravishdoshlar o'ziga oid so'zlar bilan kengayib keladi va ular ravishdosh o'rami deb yuritiladi. Ravishdosh o'ramlari, odatda, ajratilgan bo'ladi. Botir, mehmonlar bilan salomlashib, ayvon to'ridagi uyga o'tdi. (S.N.)

Ravishdosh o'ramlar o'zining alohida sub'ekt bo'lagiga ega bo'lmashligiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

1.O'zining alohida sub'ekt bo'lagiga ega bo'lmagan ravishdosh o'ramlardagi ikkinchi darajali predikatsiya ayni o'ramlarni gapga aylantirmaydi. Bunday ravishdosh o'ramlar

butunchasiga muayyan mazmunni ifodalab, gapda asosan, hol vazifasini bajaradi. Aka-uka yaxshilab yuvib bo'lgach... dasturxonga kelishdi. (S.A.)

2. O'zining alohida sub'ekt bo'lagiga ega bo'lmagan ravishdosh o'ramlar ergash gaplar sifatida baholanadi.

Sifatdosh o'ramlar bilan murakkablashgan sodda gaplar: *Tabiat sehri elitgan* Qo'ldoshali oyoq taglariga qaradi. (Y.S.)

Harakat nomli tizimlari bilan murakkablashgan sodda gaplar: *Qalandarovning mag'rurlanishi* Oyoqizga yoqmasdi. (Sh.R.)

Tayanch tushunchalar

Murakkablashgan sodda gaplar, uyushiq bo'laklar, uyushiq egalar, uyushiq kesimlar, uyushiq aniqlovchilar, uyushiq to'ldiruvchilar, ajratilgan bo'laklar, kirish so'z, kirish gap, kiritma qurilmalar, undalmalar, ravishdosh o'rami, sifatdosh o'rami, harakat nomi o'rami.

Savol va topshiriqlar

1. Murakkablashgan sodda gaplar qanday bo'ladi? Ushbu atamani ilmiy adabiyotga qaysi tilshunos olib kirdi?
2. Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi birliklar nimalardan iborat?
3. Uyushiq bo'laklarining qo'llanish usullari haqida gapiring.
4. Uyushiq bo'laklarning qanday vositlar orqali bog'lanadi?
5. Ajratilgan bo'laklar nima?
6. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar haqida gapiring.
7. Kirish qurilmalar nima?
8. Kirish so'zlarning semantik va stilistik xususiyatlari qanday?
9. Undalmalar leksik-semantik jihatdan qanday qo'llaniladi?

7-Mavzu: Qo'shma gap va uning tasnifi muammolari

R e j a:

1. Qo'shma gap haqida ma'lumot.
2. Qo'shma gaplar tasnifi masalalari.
3. Qo'shma gap qismlarining birikish usullari.
4. Qo'shma gap komponentlarini bog'lovchi vositalar.
5. Qo'shma gapning mustaqil sodda gaplardan farqi.

Qo'shma gap sintaktik birlikning eng yuqori shaklidir. Qo'shma gaplar uchun sodda gaplar qurilish materiali sanaladi. Qo'shma gaplar mustaqil sodda gaplardan emas, balki mazmun va grammatik jihatdan bir-biriga bog'liq birliklardan tashkil topadi.

Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyaga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan, turli xil grammatik, leksik-grammatik va leksik vositalar yordamida birikkan tuzilmalar qo'shma gap deyiladi.

Demak, qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar mazmun va intonatsiyasi jihatidan yaxlitlikni, bir butunlikni tashkil etadi.

Qo'shma gap muammosi o'zbek tilida XX asrning 30-yillaridan keyin ma'lum darajada o'rganila boshlandi.

Qo'shma gaplar dastlab ikki asosiy turga bo'linib kelingan. V.A.Bogorodskiy¹ ham qo'shma gap gaplarni ergashgan va bog'langan deb ikkiga ajratish birmuncha sun'iy ekanligi, u tildagi jonli turli-tumanlik, xilma-xillikni o'zida aks ettira olmasligini aytgan.

¹ Богородский В.А. Общий курс русскрй грамматики. -М., 1935. -С.229.

I.A.Batmanov² o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni uchga bo'lib tekshiradi: shart ergash gap, o'zgalar gapi, bog'langan qo'shma gaplar.

A.K.Borovkov³ qo'shma gapning ikki asosiy turi mavjud ekanligini ko'rsatadi. Xuddi shu xildagi fikr A.N.Kononov⁴ ishida ham ta'kidlangan.

M.Asqarova⁵ qo'shma gaplarni ikki guruhga bo'lib qrganadi. G'.A.Abdurahmonov⁶ esa qo'shma gaplarni uch turga (bog'lovchisiz qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gaplarga) bo'lib tekshirali.

N.A.Baskakov⁷ qo'shma gaplarni uch guruhga bo'lib tekshiradi: bog'langan qo'shma gaplar, (bog'lovchili, bog'lovchisiz) ergashgan qo'shma gaplar (bog'lovchili, bog'lovchisiz) va ko'chirma gaplar ergashgan qo'shma gap.

Keyingi yillarda qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning qurilish qolipiga ko'ra tasniflash tavsiya etiladi.

Qo'shma gaplarni tasniflaganda ularning tarkibidagi sintaktik aloqa va munosabatlarni ham hisorbga olish lozim bo'ladi.

Sintaktik aloqaning tenglashish aloqasi, tobelanish aloqa kabi oppozitsiyalarini hosil qiluvchi qutblari mavjud.

Tenglashish aloqasining xarakteri uning birinchi bosqich paradigmasini belgilashda oppozitsiya asosi vazifasini bajaradi. Tenglashish aloqa tarkibida ikki ko'rinishni farqlash mumkin: a) yopiq qatorli tenglashish; b) ochiq qatorli tenglashish.

Yopiq qatorli tenglashishda ma'nosiga ko'ra biriktiruv, zidlov aloqasi o'z aksini topadi, vazifaga ko'ra qo'shma gap hosil qiladi.

Ochiq qatorli tenglashishda ma'nosiga ko'ra ayiruv-chegaralov, inkor aloqa o'z aksini topadi, vazifasiga ko'ra qo'shma gap hosil bo'ladi. Qo'shma gapni hosil qiluvchi ayiruv, inkor bog'lovchilari ishtirok etadi.

Tobelanish aloqasi tobelikning yo'nalish xususiyatiga ikki xil aloqa hosil qiladi: a) koordinativ aloqa; b) subordinativ aloqa.

Koordinativ aloqa vazifasiga ko'ra nominativ va kommunikativ birlik hosil qiladi. Tuzilishiga ko'ra qo'shma gaplar hosil qiladi.

Subordinativ aloqa qo'shma gaplarni hosil qiladi, bu qo'shma gaplar tarkibidagi aloqa sodda gaplar tarkibidagi boshqaruv aloqasini eslatadi.

Qo'shma gap tasnifida sintaktik aloqa mezonlarinigina emas, balki sintaktik munosabat mezonlarini ham hisobga olish kerak. Sodda gaplar tarkibida monopredikativ sintaktik munosabat mavjud bo'lsa, qo'shma gaplarda polipredikativ sintaktik munosabatlar mavjud.

Polipredikativ sathda sintaktik munosabatlarning to'rt xili vujudga keladi: predikativ munosabat, atributiv munosabat, possessiv munosabat, situativ munosabat.

Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplar ma'lum mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi, qurilish qolipi va intonatsiyasiga ko'ra bir necha ko'rinishga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bog'langan qo'shma gaplar.
2. Ergash qo'shma gaplar.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.
4. Ko'chirma qurilmali qo'shma gaplar.

Qo'shma gap qismlarining birikish usullari mavjud bo'lib, ular parataksis va gipotaksis sanaladi.

Parataksis so'zi grekcha so'z bo'lib, bog'lanish, qator tuzish degan mazmunni ifodalaydi.

² Батманов И.А. Вильнер А.Н. Ўзбек тили ларслиги. Нахв.-Т., 1933, 65-бет.

³ Боровков А.К. Краткий очерк грамматики узбекского языка // Узбекско-русский словарь. -М., 1959. -С.714.

⁴ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка . -М.,Л. 1960. -С. 406.

⁵² Аскарова М. Ҳозирги замон ўзбек тилида қўшма гаплар. -Т., 1960, 6-7-бетлар.

⁷⁶ Абдурахмонов Ф.А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. АДД. -Т., 1960. -С.6

⁷ Баскаков Н.А. Сложные предложения в каракалпакском языке // Исследования по сравнительной грамматики тюркских языков. Ч.3. -М., 1961. -222.

Parataktik qurilmalar qismlari orasida turli mazmun munosabatlarining ifodalanishida shu qislar tarkibidagi gap bo'laklarining ma'nosi va o'rinishi, ularning semantik va grammatik o'zaro munosabati, ayrim leksik elementlarning qo'llanishi, gaplarning intonatsiyasi kabi omillar asosiy rol o'ynaydi: Urushdan faqat boylar manfaat topdi, ammo kambag'allar xonavayron bo'ldi. (Jurn.)

Gipotaksis so'zi ham grekcha so'z bo'lib, gaplarning o'zaro ergashtiruvchi vositalar yordamida tobelashishini anglatadi.

Ergash gap bosh gapni izohlaydigan va mazmunan unga tobe bo'lgan qismdir. Ergash gap turli tobelashtiruvchi vositalar yordami bilan bosh gapga bog'lanadi: Shundan bilamizki, mushtumzo'rlar tipirchilab qoldi. (A.Q.)

Qo'shma gapning tarkibidagi qismlar o'zaro bir-biriga intonatsiya va yordamchi vositalar bilan bog'lanadi.

Intonatsiya qo'shma gapning hamma turida ishtirok qiladigan universal vosita sanaladi. Qo'shma gapning shakllanishidagi ishtirokiga ko'ra, intonatsiya bosh va yordamchi rolni o'ynaydi. Intonatsiya bosh rolni o'ynaganda sintaktik aloqa faqat intonatsiya orqali ifodalangan bo'ladi. Yordamchi rol o'ynaganda boshqa vositalar ishtirok etadi.

Yordamchi vositalar o'z xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Grammatik vositalar.* Qo'shma gapni hosil qiluvchi grammatik vositalarga bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar. Kelishik shakllari kiradi.

2. *Leksik-grammatik vositalar.* Qo'shma gapni tuzishda xizmat qiluvchi leksik-grammatik vositalarga sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart fe'li, buyruq fe'li shakllari kiradi.

3. *Leksik vositalar.* Maxsus leksik vositalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Qo'shma gaplarni hosil qilishda kirish va kiritma konstruksiyalar ishtirok etadi. Ular izohlash, qiyoslash munosabatini ifodalaydi: Lekin bu narsa Qalandarovning taftini bosolmadi, aksincha, yuragiga o't yoqildi. (A.Q.)

2. Payt munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda *shundan buyon, shundan keyin, shu paytda, shunda, unda* so'zlari qo'llanadi.

3. Qo'shma gapni tuzishda olmoshlarning, asosan, ko'rsatish va nisbiy olmoshlarning roli bor. Shunday ayollar bo'ladi: ular ishqni e'tiqod kabi muqaddas tutadi. (O.)

4. Qo'shma gapning har ikki qismida bir xil vazifa yoki har xil vazifadagi so'z takrorlanadi: Mening domlam yo'q, domlam ikki ko'zim. (A.Q.)

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ayrim olingan sodda gaplar bilan o'xshashlik va farqli tomonlarga ega. Ular o'rtasidagi o'xshashlik quyidagilardan iborat: gap bo'laklarining ishtirok etishi, so'z birikmalarining mavjudligi, ega-kesim munosabatlarining bo'lishi. Farqli tomonlari shundaki, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ayrim olingan sodda gaplarga nisbatan mustaqilligini yo'qotgan bo'ladi, fikriy, intonatsion tugallikni to'liq ifodalamaydi.

Demak, gapni tashkil etgan sodda gaplar mazmuni, grammatik qurilishi va intonatsiyasi bilan alohida qo'llanuvchi mustaqil sodda gaplardan farq qiladi.

Tayach tushunchalar

Qo'shma gap, birikish usullari, parataksis, gipotaksis, sintaktik aloqa, tenglashish aloqasi, tobelanish aloqasi, yopiq qatorli tenglashish, ochiq qatorli tenglashish, koordinativ aloqa, subordinativ aloqa monopredikativ, polipredikativ, leksik-grammatik vositalar.

Savol va topshiriqlar

1. Qo'shma gap nima?
2. Qo'shma gaplar qanday tasnif qilingan?
3. Qo'shma gap qismlarining birikish usullari qanday?
4. Qo'shma gap komponentlarini bog'lovchi vositalar qaysilar?
5. Qo'shma gapning sodda gaplardan farqi qanday?

8-Mavzu: Bog‘langan qo‘shma gap

R e j a:

1. Bog‘langan qo‘shma gaplarning xususiyatlari va bog‘lanish vositalari.
2. Bog‘langan qo‘shma gaplarning ergash gapli qo‘shma gaplardan farqi.
3. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar.
4. Biriktiruv munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar.
5. Ayiruv munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar.

Teng bog‘lovchilar orqali birikkan biri ikkinchisiga grammatik jihatdan tobe bo‘lmagan, teng huquqli predikativ qismlardan tashkil topgan shaklan mustaqil mazmunan o‘zaro bog‘langan gaplardan shakllangan qo‘shma gap bog‘langan qo‘shma gap sanaladi. Bunday qo‘shma gap qismlarining bir-biriga bog‘liqligi ularning tuzilishida, kesimlarining semantik va grammatik munosabatda, umumiy gap bo‘laklarining mavjudligida ham ko‘rinadi. Shuning uchun ham bog‘langan qo‘shma gap, qancha gaplardan tashkil topmasin, yaxlit yagona bir qurilmani tashkil qiladi.

Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar bir-biriga biriktiruv, chog‘ishtiruv, ayiruv, zidlov munosabatlarini ifodalovchi teng bog‘lovchilar va bog‘lovchi vazifasida keluvchi *–da, –u (–yu)* yuklamalari orqali birikadi.

Bog‘langan qo‘shma gaplarda birinchi gap, odatda, erkin holda tuzilgan bo‘ladi, keyingi gap esa bog‘langan qo‘shma gap komponentlari orasidagi munosabatga bog‘liq holda shakllanadi. Shuning uchun ham bog‘langan qo‘shma gap bilan ergash gapli qo‘shma gaplar orasida grammatik, intonatsion farqlar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bog‘langan qo‘shma gaplarda sodda gaplarni biriktirish uchun teng bog‘lovchilar qo‘llanadi. Ergash gapli qo‘shma gaplarda esa tobe bog‘lovchi va nisbiy so‘zlar (kim, nima, qanday, shunday) qo‘llanadi.

2. Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning kesimlari har vaqt ma’lum shaxs, zamon ko‘rsatuvchi mustaqil shaklda bo‘ladi. Ergash gapli qo‘shma gap kesimlari esa ravishdosh, sifat-dosh, shart fe’li orqali ifodalangan tobe shaklda bo‘ladi.

3. Bog‘langan qo‘shma gapda sanash, qiyoslash intonatsiyasi bo‘lsa, ergash gapli qo‘shma gaplarda tobelantiruvchi yoki izoh intonatsiyasi bo‘ladi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro aloqasi quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:

1. Qiyoslash munosabati. 2. Biriktiruv munosabati. 3. Ayiruv munosabati. 4. Sabab va natija munosabati. 5. Izohlash munosabati.

Har qanday grammatik shakl, shu jumladan bog‘langan qo‘shma gaplarning grammatik shakli ikki xil ma’noga – umumiy va xususiy grammatik ma’noga ega.

Biriktiruvchi bog‘lovchilar umumiylik vazifasini, ergashtiruvchi bog‘lovchilar xususiylik vazifasini bajaradi.

Biriktiruvchi, ayiruvchi bog‘lovchilari orqali shakllangan bog‘langan qo‘shma gaplarda ochiq strukturali qo‘shma gaplardir.

Zidlov bog‘lovchilar, *bo‘lsa, esa* so‘zlari, *faqat* bog‘lovchisi, *–u(–yu)* yuklamalari yordamida shakllangan bog‘langan qo‘shma gaplar yopiq strukturali qo‘shma gaplardir.

Ba’zan bog‘langan qo‘shma gaplarda *–b (–ib)* ravishdosh va *–sa* shart fe’li shakli grammatik shakl sifatida ishtirok etadi. Bunday qo‘shma gaplarning ham strukturasi yopiq struktura hisoblanadi.

Qiyoslash munosabatini ifodalagan qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning intonatsiyasi bir xil bo‘lmaydi. Bunda qo‘shma gapning birinchi qismi ko‘tarilgan intonatsiya bilan, ikkinchi qismi esa pasaygan intonatsiya bilan talaffuz etiladi; har ikki qism o‘rtasida ancha sezilarli pauza bo‘ladi. Qo‘shma gap tarkibidagi qiyoslanayotgan bo‘laklarga kuchli mantiqiy

urg‘u tushadi. Bu urg‘u bo‘lsa, esa fe’llari yordamida tuzilgan qo‘shma gaplarda kuchli bo‘ladi: Otabek dahshatlanib yonidigagi Aliga qaradi, Ali esa labini tishlab turar edi. (A.Q.)

Qiyoslash mazmun munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar zidlash, qiyoslash, izohlash kabi turli ma‘no ottenkalarini ro‘yobga chiqaradi.

Qo‘shma gap qismlarining umumiy mazmun yoki gaplar tarkibidagi ayrim bo‘laklar biror tomondan bir-biriga zid qo‘yiladi. Zidlash munosabatini ifodalovchi qo‘shma gap qimlari asosan *ammo, lekin, biroq* bog‘lovchilari orqali birikadi.

Kiyoslash orqali voqea, hodisa, predmet va ularning xususiyatlari o‘rtasidagi farqlar ochiladi. Qiyoslash mazmuni asosan *bo‘lsa, esa* fe‘lari, yuklamalar, zidlov bog‘lovchilari vositasida ifodalanadi. Bu xil qo‘shma gap qismlarining tuzilishida ma‘lum parallelizm bo‘ladi. Qiyoslanayotgan bo‘laklarning xususiyatlaridagi farqlar ochiladi.

Bog‘langan qo‘shma gap izohlash munosabatini ifodalaydi. Bunda qismlarning tarkibidagi ayrim bo‘laklarning ma‘nosi birinchi qismning umumiy mazmuni izohlanishi mumkin. Izohlovchi gap ikkinchi o‘rinda kelib, birinchi gapning har bir bo‘lagi izohlanishi mumkin.

Bog‘langan qo‘shma gap qismlari ma‘lum bir paytda yoki ketma-ket ro‘y bergan voqea, hodisa, harakatlarni biriktirib keladi va bu bilan uyushiq bo‘laklarni eslatadi. Bunday qo‘shma gaplarning qismlari biriktiruv bog‘lovchilari: *va, ham, hamda; bo‘lsa, esa* yordamchilari; yuklamalar yordami bilan bog‘lanadi.

Biriktiruv munosabatiga kirishgan qo‘shma gaplarning qismlari ko‘pincha mazmunan o‘zaro jips bog‘lanadi, birining mazmuni ikkinchisiga bog‘liq bo‘ladi, turli mazmun ottenkalari, emotsional ma‘nolar ifodalanadi.

Biriktiruv munosabati ifodalangan qo‘shma gaplarda qanday qo‘shimcha mazmun ottenkasi ifodalanmasin, qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan harakat, holat, xususiyat ma‘lum bir paytda ro‘y beradi.

Bog‘langan qo‘shma gapning ayrim turlarida qismlaridan anglashilgan mazmun, odatda, bir-biriga bog‘liq bo‘lmaydi, biri ikkinchisini izohlamaydi. Ammo qo‘shma gap qismlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan yoki bir turdagi tushunchalarni ifodalaydi. Qo‘shma gap qismlari umumiy bir fikrni, tushunchani, niyatni ifodalash uchun xizmat qiladi, shu bir tushunaning, niyatning elementlari sanaladi. Bunday semantik aloqa ayiruv munosabati deyiladi. Katta hovuzlardagi suvlarda ko‘lankalar va shu‘lalar jim-jim o‘ynashadi, goh ko‘lankalar yonib ketadi, goh shu‘larni ko‘lankalar yutadi. (O.)

Ayiruv munosabatini ifodalagan bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro *ayiruv bog‘lovchisi* va *ba‘zan, hali, bir kabi* ayrim leksik elementlar yordami bilan bog‘lanadi.

Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining biri ma‘lum voqea, hodisa, holatning ro‘y berishiga sabab bo‘lgan voqea, holatini ikkinchi qism esa shu sabab asosida ro‘y bergan voqea, hodisa. Holatini ifodalaydi.

Sabab-natija munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar o‘zaro biriktiruv bog‘lovchisi yoki *-u(-yu), -da* yuklamalari yordamida bog‘lanadi. Bundan tashqari, intonatsiya, mantiqiy urg‘u va modal so‘zlar orqali ham sabab-natija munosabati ifodalanadi. Qiz yalt etib Jamolga qaradi-yu, yuragi hovliqib ketdi. (O.)

Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan gaplarning so‘nggisi oldingi aytilgan gaplarning mazmuniga qo‘shimcha umumiy izoh bo‘ladi, ular oldingi gaplarning mazmuniga aloqador bo‘lgan yoki shu mazmundan kelib chiqadigan biror qo‘shimcha xabarni ifodalaydilar.

Tarkibiy qismlarining o‘zaro semantik munosabatiga ko‘ra, bog‘langan qo‘shma qo‘shma gapning bu tipii ikki turga bo‘linadi:

1. Izohlash munosabatini ifodalaydi.
2. Qo‘shimcha ma‘lumot berish uchun xizmat qiladi.

Bog‘langan qo‘shma gapning izohlash munosabatini ifodalovchi guruhida qo‘shma gapning ikkinchi qismi birinchi qismdan anglashilgan umumiy mazmunni izohlaydi yoki so‘zlovchining birinchi qismning mazmuni haqidagi fikri, bahosi, munosabatini ko‘rsatadi.

Izohlash munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gapning qismlari o‘zaro biriktiruv bog‘lovchilari (*va, ham, hamda*), zidlov bog‘lovchilari (*lekin, ammo*) bog‘lovchi

vazifasidagi bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'lanadi, bunda har bir bog'lovchi o'z grammamatik ottenkasini saqlaydi.

Izoh munosabatini ifodalagan qo'shma gaplarning tarkibida *bu* olmoshi bo'ladi. *Bu* olmoshi turli vazifada qo'llanadi va har doim qo'shma gapning ikkinchi qismida bo'ladi.

Bog'langan qo'shma gapning ikkinchi qismi qo'shimcha ma'lumot ifodalaydi. Qo'shimcha ma'lumot qo'shma gapning birinchi qismi bilan bevosita bog'lanishi, undan kelib chiqishi yoki birinchi qismning mazmuni bilan uzviy bog'lanishi mumkin. Bu xil bog'langan qo'shma gap qismlarini biriktirish uchun *ham*, *hamda* bog'lovchilari ishlatiladi.

Tayanch tushunchalar

Bog'langan qo'shma gap, biriktiruv munosabati, chog'ishtirish munosabati, ayiruv munosabati, zidlov munosabati, qiyoslash munosabati, sabab va natija munosabati, izohlash munosabati.

Savol va topshiriqlar

1. Bog'langan qo'shma gap nima?
2. Bog'langan qo'shma gaplarning ergash gapli qo'shma gaplardan farqi qanday?
3. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gaplar qanday bo'ladi?
4. Biritiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplarning qanday turlari mavjud?
5. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplarning semantik munosabati qanday?
6. Sabab va natija munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gaplar haqida gapiring.
7. Izohlash munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap turlar necha xil bo'ladi?

9-Mavzu: Ergash gapli qo'shma gap va uning tasnifi muammolari

R e j a:

1. Ergash gaplarning tasnifi masalasi.
2. Ergash gaplarning turlari
3. Ega ergash gapli qo'shma gaplar.
4. Kesim ergash gapli qo'shma gaplar.
5. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar.
6. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar
7. Ravish ergash gapli qo'shma gaplar.

O'zbek tilidagi ergashg gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi ergash gaplarning tasnifiga yaqin turadi.

Ergash gaplarni sodda gap bo'laklariga o'xshatishga asoslangan tasnifga ergash gapli qo'shma gaplarni bosh va ergash qismlarning bog'lanish vositalariga ko'ra shakliy tasniflash qarama-qarshi qo'yiladi. Bunday tasniflash A.M.Peshkovskiy, M.N.Peterson, L.A.Bulaxovskiy, A.B.Shapirolar tomonidan ilgari surilgan va himoya qilingan... Ergash gapli qo'shma gaplar orasida ikki asosi tip farqlangan: bog'lovchi vazifasidagi so'zlar gaplar (nisbiy ergashish) va bog'lovchili gaplar (bog'lovchili ergashish)...

Tarkibiy-mazmuniy tasnifning yaratilishida N.S.Paspelovning ishlari muhim rol o'ynaydi, u ergash gapli qo'shma gaplarning ikki asosiy tipini ajratgan: ikki a'zoli tip va bir a'zoli tip. Ikki a'zoli va bir a'zoli gaplar o'rtasidagi farqni N.S.Paspelov bosh va ergash qismlar o'rtasidagi aloqadorlikning turli tabiati bilan bog'laydi: ikki a'zoli gaplarda ergashg qism bilan yaxlitligicha bog'lanadi, bir a'zoli gaplarda ergash qism bosh gapdagi bir so'zga tegishli bo'ladi.

Ergash gaplarning bosh gapni yaxlitligicha izohlashi yoki uning biror bo'lagi bilan aloqador bo'lishi haqidagi qarash turkiyshunoslikda ham keng tarqalgan. Masalan, M.Asqarova

shunday ta'kidlaydi: "Ergash gap esa mazmun va strukturasiga ko'ra bosh gapdan ko'ra boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror bo'lagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi"¹.

N.A.Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagicha guruhlariga ajratadi:

1. Bosh gapdagi substantiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to'ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

2. Bosh gapdagi atributiv bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga kesim va aniqlovchilar kiradi.

3. Bosh gapdagi atributiv – hol bo'laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to'siqsiz, maqsad, payt, o'xshatish va chog'ishtirish ergash gaplari kiradi.²

O'zbek tilshunosligida ergash gaplar mazmuniy-shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi: 1) ega, 2) kesim, 3) to'ldiruvchi, 4) aniqlovchi, 5) ravish, 6) o'lchov-daraja, 7) chog'ishtirish-o'xshatish, 8) sabab, 9) maqsad, 10) payt, 11) o'rin, 12) shart, 13) to'siqsiz, 14) natija ergash gaplar³.

Ega ergash gapli qo'shma gaplar. Ega ergash gap bosh gapdan ayrim olmoshlar bilan ifodalangan egani izohlab, konkretlashtirib keladi.

Ega ergash gap bosh gapga ko'pincha fe'lining shart mayli shakli bilan birikadi: Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi. (Maqol)

Kesim ergash gapli qo'shma gap. Kesim ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimning ma'nosini izohlab, aniqlashtirib keladi. Kesim ergash gap ko'pincha bosh gapda kesim vazifasida kelgan *shu*, *shunday*, *shundan iborat* kabi so'zlarning ma'nosini konkretlashtirib keladi. Kesim ergash gap bosh gap bilan *–ki* yordamchisi orqali birikadi: O'zbek mushtumining mahkamligi shundaki, bu mushtda juda ko'p halqlarning kuchi birlashgan. (O.)

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchining ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi.

To'ldiruvchi ergash gap ko'pincha bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga *–ki*, *–mi* yordamchilari orqali birikadi. Bu yordamchilar bosh gapning kesimiga qo'shilib keladi: Bilasizki, xo'jayinning Nuri degan qizlari bor. (O.)

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan so'zlarning ma'nosini izohlab, konkretlashtirib keladi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapda aniqlovchi vazifasida kelgan ayrim, shunday, ba'zi, bir kabi so'zlarning ma'nosini to'laroq ochib beradi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga *–ki* yordamchisi orqali birikadi va ergash gap bosh gapdan keyin keladi: Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, butun el oldida manzur va mo'rtabar bo'lsin. (O.)

Ravish ergash gapli qo'shma gap. Ravish ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan harakatning yoki bosh gapdagi butun voqeaning qay tarzda, qanday vaziyatda yuzaga kelishini ko'rsatadi.

Ravish ergash gaplarning kesimi *–b(-ib)*, *–may (-masdan)* qo'shimchali ravishdosh bilan ifodalanib bosh gapga bog'lanadi.

Ravish ergash gaplar bosh gapdan oldin, bosh gapning o'rtasida yoki bosh gapdan keyin keladi: Yuragida hislar to'lib-toshib, O'ktam haykal tevaragida ancha vaqt asta-sekin yurdi. (O.)

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar. O'lchov-daraja ergash gaplar bosh gapdagi voqeani o'lchash hamda bosh gapning darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Bu xil ergash gap bosh gapdagi voqeani chegaralab ko'rsatadi.

O'lchov-daraja ergash gaplarning kesimi shart mayli shaklida bo'ladi. Bunda ergash gapdagi *qancha*, *qanchalik*, *nechog'lik* olmoshlari bosh gap tarkibida kelgan *shuncha*, *shunchalik*, *shu chog'li*, *shu qadar* kabi so'zlarga mos keladi. Bosh gap tarkibida kelgan bunday so'z kesimga bog'langan bo'lsa, ergash gap bosh gapdagi ish-harakat, holatning qanday

¹ Ғуломов А., Асқарова м. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри, Тошкент, Ўқитувчи, 1987, 187-бет.

² Баскаков А.Н. Предложение в современном турецком языке. –М., Наука, 1984, -С.157.

³ Ғуломов А.. Асқарова М. Кўрсатилган асар, 187-бет..

darajada, qancha miqdorda bajarilishini bildiradi: *Qiladigan ishingiz qanchalik ulug'vor bo'lsa, g'ayratingiz shuncha qaynay beradi.* (R.F.)

Ergash gapning kesimi sifatdoshdan so'ng *sari*, *sayin* ko'makchilarini keltirish orqali ifodalanadi. Bunda ergash gapda *qanchalik*, bosh gapda *shunchalik* nisbiy so'zlari ishtirok etadi: *Yoshing ulg'aygan sari*, *tajribang ham orta borar ekan.* (Jurn.)

Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar. Chog'ishtirish ergash gapi bir harakat bilan ikkinchi harakatni, bir voqea bilan ikkinchi voqeani, bir shaxs bilan ikkinchi shaxsni chog'ishtiradi.

Chog'ishtirish ergash gapi bosh gapga shart fe'l shakli, sifatdosh va ravishdosha shakllari hamda *–ki* bog'lovchisi orqali bog'lanadi.

Ergash gapning tarkibida *–guncha*, *–gandan ko'ra*, *–ishdan ko'ra*, *qanday*, *qanday qilib*, *shunday*, *o'shanday*, *shunday qilib*, *o'shanday qilib* kabi nisbiy so'zlar ishtirok qiladi: *Qul bo'lib yashaguncha*, *mard bo'lib o'lgan yaxshi.* (Maqol)

Ergash gapning kesimi sifatdoshdan so'ng *–day*. *–gani*. *–ganiday* qo'shimchalarini yoki *kabi*, *singari*, *sari*, *go'yo* yordamchilaridan birini keltirish bilan ifodalanib, ergash gap bosh gapdagi harakatning bajarilishini boshqa predmet harakatiga o'xshashtirish orqali bildiradi: *U qimir etmadi*, *go'yo asabi ham*, *sezgilari ham o'lgan edi.* (A.M.)

Sabab ergash gapli qo'shma gaplar. Sabab ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelish sababini bildiradi.

Sabab ergash gap bosh gapga *chunki*, *shu sababli*, *shu tufayli*, *sababki*, *negaki*, *shekilli*, *shuning uchun*, *–gani uchun*, *–gani tufayli*, *–ganidan*, *–i(b)*. *–may* kabi yordamchilar orqali birikadi: *G'ulomjon uzoq o'y surib ketgani sababli*, *suhbat uzilib qoldi.* (M.Is.)

Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar. Maqsad ergash gap bosh gapdagi harakat yoki voqeaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi. Bunday qo'shma gapning qismlari *o'zaro deb* (*deya*), *uchun* yordamchilari vositasida birikadi.

Maqsad mazmunini yanada bo'rttirib ko'rsatish uchun ergash gap oldida *zora*, *shoyad* kabi so'zlar ishlatiladi. Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin keladi: *Zora*, *xo'jayinning ko'ngli bir oz yozilsa deb*, *mehmon gaplashadi*, *hasratlashadi.* (A.M.)

Payt ergash gapli qo'shma gaplar. Payt ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelish vaqtini bildiradi.

Payt ergash gap bosh gapga *–ganidan keyin* (*so'ng*, *avval*), *–ganda*, *–gan vaqtda* (*paytda*), *–masdan*, *–masdan oldin* (*burun*, *keyin*), *–mas*, *–i(b)*, *–gach*, *–guncha*, *–may*, *–(i) shi*, *bilan* yordamchilari birikadi. Payt ergash gap, asosan, bosh gapdan oldin keladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, idoraga chollar kirishdi. (A.Q.)

O'rin ergash gapli qo'shma gaplar. O'rin ergash gapli qo'shma gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelish, bajarilish o'rnini bildiradi. Ko'z qaerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi. (Maqol)

O'rin ergash gap bosh gapga ko'pincha fe'lning shart mayli shakli orqali birikadi. Bundan tashqari, o'rin ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gap tarkibida *qaerda-shu yerda*, *qaerdan-shu yerdan*, *qaerga-shu yerga* kabi so'zlar qo'llanadi. Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi. (Maqol)

Shart ergash gapli qo'shma gaplar. Shart ergash gap bosh gapdagi voqeaning qanday shart bilan yuzaga chiqishini bildiradi.

Shart ergash gap bosh gapga fe'lning shart mayli shakli yoki *–ganda*, *–ganda edi* yordamchisi, shuningdek, *–(a)r+ekan* shakllari orqali bog'lanadi: *Ilg'orlarni har ishda yetakchi qila bilsangiz*, *mara sizniki.* (O.)

Ba'zan shart mazmunini yanada kuchliroq ifodalash uchun ergash gapning boshida *agar*, *bordi-yu*, *mabodo*, *basharti* kabi so'zlar keladi: *Agar mamlakatda jabr-zulm benihoyat avj olmasa edi*, *ishqingiz qora kiymas edi.* (O.)

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap va ergash gapdagi mazmun bir-biriga zid bo'lsa ham, shu zidlikka, to'siqqa qaramay, bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishi ifodalanadi.

To'siqsiz ergash gap bosh gapga –*sa ham. –sa-da, -ganda ham, qaramay* kabi yordamchilar orqali bog'lanadi: Quyosh yashiriningan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali tamom so'nmagani edi. (O.)

Natija ergash gapli qo'shma gaplar. Natija ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishidagi natijani bildiradi.

Natija ergash gap –*ki* yordamchisi orqali birikadi. Bunday ergash gaplar ko'pincha bosh gapdagi harakat belgisini ko'rsatadigan *shunday (shunaqangi), chunon(chunonam)* kabi so'zlarning ma'nosini konkretlashtirib keladi: Asrorqul chilimni shunday qattiq tortdiki, sarxonasidan alanga ko'tarildi. (A.Q.)

Tayanch tushunchalar

Ergash gapli qo'shma gap, tasnif masalasi, bosh gap, ergash gap, ega ergash gap, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, ravish, o'ldiruv-daraja, chog'ishtirish va o'xshatish, sabab, maqsad, payt, o'rin, shart, to'siqsiz, natija ergash gapli qo'shma gaplar.

Savol va topshiriqlar

1. Ergash gaplarning tasnifi haqida nimalarni bilasiz?
2. Ershash gaplarning qanday turlari bor?
3. Ega ergash gap qanday ma'noni izohlab keladi?
4. Kesim ergash gap qaysi yordamchilar orqali bosh gapga bog'lanadi?
5. Ravish ergash gap qanday ravishdosh shakllari bilan bog'lanadi?
6. Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapning kesimi sifatdoshdan keyin qanday affikslar bilan bog'lanadi?

10-Mavzu: Bog'lovchisiz qo'shma gap

R e j a:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarga o'xshash hamda farqli tomonlari.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan gaplarning o'zaro bog'lanish usullari.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning turlari.
4. Bir tipli gaplardan tarkib topgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar.
5. Turli tipli gaplardan tarkib topgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Qo'shma gap qismlari bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi grammatik vositalar va nisbiy so'zlarisiz intonatsiya orqali bir-biri bilan aloqaga kirishib sintaktik butunlikni – bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etadi.

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning grammatik bog'lovchilar yordamisiz birikuvidan tuzilgan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar hisoblanadi.

Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar mazmunan va ohangda kirishib ketadi. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmun va intonatsion tugallikka ega bo'lmaydi. Ular ma'lum bir fikrni ifodalaydi, intonatsion tugallik bunday gaplarning oxirida bo'ladi. Shu sababli bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplardagidek, o'zaro teng aloqaga ham, tobe aloqaga ham kirisha olmaydi.

Bog'lovchisiz va borlangan qo'shma gap mazmunan va intonatsiya jihatidan bir-biriga teng bo'lmaydi. Qiyoslang: Sen kelasan – ish boshlaymiz. Sen kelasan va ish boshlaymiz.

Bog'lovchisiz qo'shma gap ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap ma'no munosabatini ifodalaydi.

Nisbiy olmoshlar yordami bilan bosh gapga bog'langan ergash gapdagi ma'no munosabatlarini bog'lovchisiz qo'shma gap ifodalamaydi.

Izoh ma'nosidagi bog'lovchisiz qo'shma gapga o'xshash qurilmalar bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llanmaydi.

Ba'zi bir bog'lovchisiz qo'shma gaplarni ergash gaplar bilan almashtirish mumkin bo'lsa-da, ularni ergash gapning biror aniq turiga kiritish mumkin emas: Yurt tinch - sen tinch. (Maqol)

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarning ayrim turlari ko'p ma'noli bo'lib, bog'langan qo'shma gapning ham, ergash gapli qo'shma gapning ham xususiyatlarini o'zida ifodalashi mumkin: Kanal qazigan edik, suv chiqmadi. (A.Q.) Kanal qazigan edik, lekin suv chiqmadi (bog'lovchisiz qo'shma gap).

Har qanday bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar o'zaro ma'lum bir vositalar yordami bilan birlashadi va qo'shma gapni hosil qiladi. Bu vositalar quyidagilardan iborat:

1. *Lekink elementlar: shundan buyon, shundan keyin, unda, shunda, shu paytda*, olmoshlar, sinonim va antonim so'lar, kirish so'zlar, yuklamalar.

2. *Ayrim gap bo'laklarining takrorlanishi*. Bir xil so'zning ikki gapda takrorlanishi har ikki gapni bir-biriga yaqinlashtiradi, qo'shma gapni hosil qiladi. Umumiy gap bo'laklari har ikki gapda bir xil vazifada bo'lishi yoki turli vazifada bo'lishi mumkin: Mening domlam yo'q, domlam- ikki ko'zim. (A.Q.)

3. *Umumiy ikkinchi darajali bo'laklar*. Bog'lovchisiz qo'shma gapning tarkibidagi ikkinchi darajali bo'lak qo'shma gap tarkibidagi gaplar uchun umumiy bo'ladi. Umumiy ikkinchi darajali bo'lak faqat birinchi gap tarkibida qo'llanib, ikkinchi gapda ifodalanmaydi. Ammo umumiy kontekstdan sezilib turadi: Boyvachchaning rangi biroz oqardi, ko'zlari asabiy ravishda qisildi. (O.)

4. *Struktura*. Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning bir struktura jihatidan shunday tuziladiki, uni qo'shma gapning boshqa gapidan tashqari tushunish mumkin emas. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar struktura jihatidan bir-birlariga bog'liq bo'lib qoladilar: Qaysi Inomjon bo'lar edi, tog'angizni o'g'li! (A.Q.)

5. *Intonatsiya va o'rin*. Intonatsiya sodda gaplarni biriktirib, bog'lovchisiz qo'shma gap hosil qilishda muhim rol o'ynaydi. Jodi yo'q-sigirlarga poya bugun tashlanadi. (A.Q.)

Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning o'z o'rnini bor, shu o'ringa ko'ra boshqa sodda gap bilan birikadi, ma'lum maqsadni, fikrni ifodalaydi. Gap o'rinlarining o'zgarishi bilan mazmun buziladi va kuzatilgan fikrni bildirmaydi: Sen kelding – yasandi dunyo. (U.)

6. *Zamon munosabati*. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi bir sodda gap kesimining bir xil zamon shakli va mazmunida bo'lishi shu qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi gap kesimining unga muvofiq bo'lishini talab etadi: Va'daga vafo mardning ishi, va'dasiz- subutsiz kishi. (Maqol)

Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning o'zaro ma'no munosabati va utslarning intonatsiyasi ham turlicha bo'ladi. Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning o'zaro ma'no va intonatsion munosabatlariga ko'ra, qo'shma gapning ifodalagan umumiy mazmuniga ko'ra, bog'lovchisiz qo'shma gaplar ikki turga bo'linadi:

1. Bir gapli tiplardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

2. Turli tipli gaplardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bir tipli gaplardan tashkil topgan qo'shma gaplarning tarkibidagi sodda gaplarning tipi ham, ularning ohangi ham bir xil bo'ladi. Ularda ma'lum bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqea, hodisalar ifodalanadi yoki voqea, hodisalar bir-biriga qiyoslanadi.

Bir turdagi gaplardan tashkil topib, umumiy bir fikrni ifodalovchi qo'shma gaplar bir tipli gaplardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar hisoblanadi: Jismimiz yo'qolur, o'chmas nomimiz (H.O.)

Turli tipli gaplardan tarkib topgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar odatda ikki sodda gapning birikuvidan tuziladi. Ammo ayrim hollarda bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tarkibi murakkab bo'lishi, ikkidan ortiq sodda gaplardan tuzilishi mumkin. Bu holat qo'shma gapning birinchi qismini turli tomondan, keng izohlashi zarur topilgan o'rinlarda ro'y beradi:

Halqqa ayting men aslo o'lganim yo'q,

Yov qo‘liga taslim ham bo‘lganim yo‘q,

Tayanch tushunchalar

Bog‘lovchisiz qo‘shma gap, nisbiy olmoshlar, leksik elementlar, ayrim gap bo‘laklarining takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo‘laklar, struktura, intonatsiya va o‘rin, zamon munosabati, bir gapli tiplardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar, turli tipli gaplardan tashkil topgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

Savol va topshiriqlar

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap nima?
2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning bog‘langan qo‘shma gaplarga o‘xshash va farqli tomonlari qanday?
3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning ergash gapli qo‘shma gaplarga o‘xshash hamda farqli tomonlari nimalardan iborat?
4. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapni tashkil etgan gaplarning o‘zaro bog‘lanish usllari haqida gapiring.
5. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar necha turli bo‘ladi? Misollar orqali tushuntirib bering.